



TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI



USLUBIY QO'LLANMA

Oliy ta'lim tashkilotlarida
sifatni ichki ta'minlash



2025-yil

Oliy ta'lim tashkilotlari uchun ichki sifatni ta'minlash bo'yicha uslubiy qo'llanma. T.: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi, 2025-yil. – 25 bet.

Mazkur qo'llanma oliy ta'lim tashkilotlari uchun ichki sifatni ta'minlash tamoyillari, talablari, sifatni ta'minlashga mas'ul ishtirokchilarning vazifalari, shuningdek, sifatni ichki baholashga oid hujjatlarni shakllantirish tartibini sodda va ravon tilda tushuntirishga qaratilgan.

Ushbu qo'llanma ta'lim sohasidagi davlat xizmatchilari, ta'lim tashkilotlari xodimlari, talabalar hamda keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

Ushbu uslubiy qo'llanma Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligining Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutining Ilmiy kengashida 2025-yil 18-sentabrdagi 9-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan.

Ushbu uslubiy qo'llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.

© *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi, 2025-yil.*

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Ta'lim sifati bo'yicha tushunchalar.....	4
Maqsad va vazifalar.....	5
Tamoyillar va talablar.....	5
Ichki sifatni ta'minlash zarurati	6
Ichki sifatni ta'minlash ishtirokchilari va ularning vazifalari.....	7
Ichki sifatni ta'minlash bo'linmasini tashkil etish tartibi hamda uning huquq va majburiyatlari	10
O'zini o'zi baholashning ahamiyati va uni amalga oshirish mexanizmlari	12
Yakuniy qoidalar.....	12
Normativ-huquqiy hujjatlar.....	13
Ilovalar.....	16

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoniga muvofiq ichki ta'lim sifatini ta'minlash ta'lim tashkilotlari tomonidan olib borilishi va tashqi sifat nazorati Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan yuritilishi belgilandi.

Mazkur uslubiy qo'llanma oliy ta'lim tashkilotlarida ichki sifatni ta'minlash tizimini samarali yo'lga qo'yishda metodik yordam ko'rsatishga qaratilgan. Qo'llanma orqali oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati monitoringi, professor-o'qituvchilarning pedagogik va ilmiy salohiyati, ilmiy tadqiqotlar samaradorligi, xalqaro hamkorlik va akademik erkinlik darajasi muntazam baholab borilishi uchun zarur bo'lgan mexanizmlar yoritiladi.

Shuningdek, qo'llanmada talaba va ilmiy izlanuvchilarni bilim darajasi, o'qitish jarayonining samaradorligi, professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv dasturlarining zamonaviy mehnat bozori va xalqaro talablarga mos ravishda takomillashtirilishi kabi masalalar ham o'z aksini topgan.

Oliy ta'lim tashkilotlari uchun ichki sifatni ta'minlash tizimi – bu faqat nazorat mexanizmi emas, balki uzluksiz rivojlanish, yangiliklarni tatbiq etish va akademik muhitni yanada yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim vositadir. Shu bois, mazkur metodik qo'llanma barcha manfaatdor tomonlar – rahbariyat, professor-o'qituvchilar, talabalar, ilmiy izlanuvchilar, ish beruvchilar va xalqaro hamkorlar uchun amaliy qo'llanma sifatida xizmat qiladi.

Qo'llanmani ishlab chiqishda rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari, xususan, Yevropa Ittifoqining ESG (European Standards and Guidelines for Quality Assurance in Higher Education) kabi xalqaro sifatni ta'minlash tizimlari tavsiyalaridan keng foydalanildi.

Shuningdek, ta'limga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat ta'lim standartlari va boshqa me'yoriy asoslarga muvofiq milliy ehtiyojlarga moslashgan yondashuvlar asosida ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, qo'llanmadan samarali foydalanish oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatida ta'lim sifati madaniyatini mustahkamlash, ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

TA'LIM SIFATI BO'YICHA TUSHUNCHALAR

Ushbu qo'llanmada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

	davlat akkreditatsiyasi – ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) tomonidan ta'lim tashkilot (dastur)larini tashqi baholash orqali maxsus yoki kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish;
	ichki (o'zini o'zi) baholash – ta'lim tashkilotining belgilangan ichki sifatni ta'minlash mezonlari asosida o'z faoliyati samaradorligini kuzatishi, tahlil qilishi, baholashi va uni takomillashtirish choralarini ko'rish jarayoni;
	ichki manfaatdor tomonlar – bu tashkilot ichida faoliyat yurituvchi, uning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda bevosita ishtirok etuvchi shaxslar yoki tuzilmalar bo'lib, ular qabul qilinayotgan qarorlar va amalga oshirilayotgan jarayonlarning natijalaridan manfaatdor hisoblanadi.
	kompleks davlat akkreditatsiyasi – ta'lim tashkilotlarining faoliyatini baholashda davlat nazoratining asosiy shakli bo'lib, kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining davlat ta'lim standartlari (talablari) va akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini baholash, shuningdek, bitiruvchilarga beriladigan hujjatlarni davlat tomonidan e'tirof etish jarayoni;
	tashqi baholash – ta'lim tashkiloti faoliyatini, kadrlar tayyorlash mazmuni, darajasi va sifatining davlat ta'lim standartlari (talablari) hamda akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini Agentlik tomonidan baholanishi jarayoni;
	tashqi manfaatdor tomonlar – bu tashkilot faoliyatiga bevosita jalb etilmagan, biroq uning qaror va natijalaridan manfaatdor bo'lgan ishtirokchilar bo'lib, ta'lim jarayonida bilvosita ishtirok etish orqali ta'lim sifatini ta'minlashda ko'maklashadi;
	maxsus davlat akkreditatsiyasi – kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilayotgan yoki amalga oshirilayotgan ta'lim dasturi bo'yicha o'qitishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika, axborot va o'quv-metodik bazalar, pedagog kadrlar, ta'lim hajmi va mazmuni hamda boshqa talablarga rioya etilishi yuzasidan ta'lim tashkilotining ta'lim sifati ta'minlanishini davlat tomonidan e'tirof etilishi hamda ushbu ta'lim dasturi bo'yicha kadrlar tayyorlash huquqini berish jarayoni;

MAQSAD VA VAZIFALAR

Mazkur qo'llanmaning asosiy **maqsadi** – oliy ta'lim tashkilotlarida ichki sifatni ta'minlash tizimini samarali tashkil etish va boshqarishda metodik yordam berish.

Quyidagilar qo'llanmaning asosiy **vazifalari** hisoblanadi:

- ✓ ichki sifatni ta'minlashga oid normativ-huquqiy hujjatlar bo'yicha ma'lumotlar berish;
- ✓ ichki sifatni ta'minlash tamoyillari va talablarini belgilash;
- ✓ ichki sifatni ta'minlash zarurati yuzasidan tushunchalar berish;
- ✓ ichki sifatni ta'minlash ishtirokchilari va vazifalari yuzasidan izoh berish;
- ✓ ichki sifatni ta'minlash bo'linmasining vazifalari, huquq va majburiyatlarining yuzasidan ma'lumot berish;
- ✓ ichki sifatni ta'minlashga oid anketalar namunalarini taqdim etish;
- ✓ o'z-o'zini baholashning ahamiyati va uni amalga oshirish mexanizmlari yuzasidan tavsiyalar berish.

TAMOYILLAR VA TALABLAR

Quyidagilar ta'lim tashkilotlarida ichki sifatni ta'minlashga oid **tamoyillar** hisoblanadi:

- ✓ mas'uldorlik;
- ✓ hisobdorlik;
- ✓ xolislik;
- ✓ samaradorlik;
- ✓ tizimlilik;
- ✓ ta'lim oluvchiga yo'naltirilganlik;
- ✓ inklyuzivlik;
- ✓ uzluksizlik;
- ✓ barqarorlik.

Quyidagilar ichki sifatni ta'minlashga qo'yiladigan asosiy **talablar** hisoblanadi:

- ✓ ichki sifat tizimining mavjudligi;
- ✓ sifat siyosatiga taalluqli strategik maqsadlarning mavjudligi;
- ✓ ta'lim dasturlarining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligi;
- ✓ pedagog kadrlar salohiyatni doimiy oshirib borilishi;
- ✓ ichki baholash tizimining yo'lga qo'yilganligi;
- ✓ ichki sifatni ta'minlashning monitoringi tashkil etilishi;


- ✓ sifatni ta'minlashga oid ma'lumotlarning to'planishi va tahlil qilinishi;
- ✓ talabalar va ilmiy izlanuvchilar fikrini muntazam o'rganish;
- ✓ manfaatdor tomonlar bilan doimiy aloqalarni yo'lga qo'yilishi.

ICHKI SIFATNI TA'MINLASH ZARURATI

Oliy ta'lim tashkilotlari ta'lim tizimining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Ular mamlakatning intellektual, madaniy va iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi hamda talabalarni mehnat bozoriga tayyorlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu boisdan, ta'lim tashkilotlarida ichki sifatni ta'minlash tizimini shakllantirish va izchil rivojlantirish dolzarb ahamiyatga ega.

Ichki sifat tizimi ta'lim jarayonining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini, o'quv dasturlarining yangiligi va dolzarbligini, shuningdek, pedagogik kadrlar malakasini oshirish va baholash orqali ta'lim sifatining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bunday tizim talabalarning ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda, ularni mehnat bozori talablariga javob beradigan yetuk mutaxassis sifatida tayyorlashga yordam beradi.

1-jadval



Ichki sifatni doimiy monitoring qilish, o'zini o'zi baholash va ichki audit mexanizmlarini joriy etish orqali ta'lim tashkilotni tashqi baholashga puxta tayyorgarlik ko'radi hamda o'z faoliyatining shaffofligini ta'minlaydi. Shuningdek, ichki sifatni ta'minlashda mavjud moddiy-texnik baza, professor-o'qituvchilar salohiyati va boshqaruv resurslaridan oqilona va samarali foydalanishga ko'mak beradi. Ushbu tizim ta'lim tashkiloti xodimlarini o'z faoliyatini tahlil qilish, yangicha yondashuvlarni qo'llash, o'zaro tajriba almashish va uzluksiz o'rganishga undaydi, bu esa ularning professional rivojlanishiga turtki bo'ladi. Bundan tashqari, ota-onalar, ish beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan tizimli hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali ishonchni oshirish va tashkilot faoliyatining ochiqqligini ta'minlashda ichki sifat tizimi muhim vosita hisoblanadi. Shu bois oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatida ichki sifatni ta'minlash tizimini joriy etish ta'lim samaradorligi va raqobatbardosh bitiruvchilarni tayyorlashning asosi sifatida qaralishi zarur.

ICHKI SIFATNI TA'MINLASH ISHTIROKCHILARI VA ULARNING VAZIFALARI

Ichki sifatni ta'minlash ishtirokchilari quyidagi ikki turga bo'linadi:

- ✓ **ichki manfaatdor tomonlar;**
- ✓ **tashqi manfaatdor tomonlar.**

Quyidagilar **ichki manfaatdor** tomonlar hisoblanadi:

- ✓ rahbariyat;
- ✓ professor-o'qituvchilar;
- ✓ ilmiy izlanuvchilar
- ✓ talabalar;
- ✓ ichki sifatni ta'minlash bo'linmasi;

Quyidagilar **tashqi manfaatdor** tomonlar hisoblanadi:

- ✓ ish beruvchilar;
- ✓ ota-onalar yoki qonuniy vakillar;
- ✓ mas'ul vazirlik va idoralar;
- ✓ bitiruvchilar;
- ✓ jamoatchilik va fuqarolik jamiyati institutlari;
- ✓ oliy ta'lim tashkilotlari;
- ✓ xalqaro tashkilotlar va donorlar;
- ✓ ommaviy axborot vositalari.

Ta'lim tashkilotlarida ichki sifatni ta'minlash jarayonida ichki va tashqi manfaatdorning o'zni muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ichki manfaatdor tomonlar ta'lim jarayonini tashkil samarali tashkil ishtirok etishsa, tashqi manfaatdor tomonlar ta'lim sifatiga o'zlarining talablari qo'yish, ko'maklashish va maslahat berish orqali ta'lim tashkilotining rivojlanishiga hissalarini qo'shadi.

2-jadval

Manfaatdor tomonlar	Tashkiliy-Boshqaruv yo'nalishi	Ta'lim sifatini ta'minlash yo'nalishi	Talabalar faoliyati yo'nalishi	O'quv jarayonini tashkil etish yo'nalishi	Inson resurslari yo'nalishi	Ilmiy-tadqiqot ishlari yo'nalishi	Talabalarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishi	Moddiy texnik ta'minot yo'nalishi
Ichki manfaatdorlar	▲	▲	▲	▲	▲	▲	▲	▲
Tashqi manfaatdorlar	▲	●	●	●	▲	▲	●	▲



Asosiy ishtirokchi



Yordamchi/maslahatchi

Ichki manfaatdor tomonlar ichki sifatni ta'minlashda quyidagi vazifalarni bajaradi:

	Professor-o'qituvchilarning asosiy vazifalari ta'limning ichki sifatini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, davlat ta'lim standartlari asosida o'qitish, talabalar bilimini adolatli baholash, ta'lim sifat monitoringida (anketalar, so'rovnomalar, ichki auditlar) faol ishtirok etish, metodik materiallar va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish hamda malaka oshirish orqali uzluksiz rivojlanishni o'z ichiga oladi.
	Ichki ta'lim sifati tizimida talabalarning roli muhim bo'lib, ular ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi, o'zining o'quv natijalari uchun javobgar bo'lishi, ta'lim sifati bo'yicha fikr-mulohazalarini so'rovnomalar va yig'ilishlar orqali bildirish hamda o'z-o'zini baholashda faol qatnashishi lozim.
	Rahbariyat ichki sifat tizimini boshqaruvchi asosiy bo'g'in bo'lib, sifat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, ichki sifat tizimini yaratish va doimiy nazorat qilish, mavjud resurslarni samarali taqsimlash, baholash va monitoring asosida takomillashtirish choralari ko'rish hamda ichki va tashqi manfaatdor tomonlar bilan uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun mas'uldir.
	Ichki sifatni ta'minlash bo'linmasi o'quv jarayoni, baholash, hujjatlar va faoliyatni tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklar bo'yicha tavsiyalar berish, yakuniy hisobotlar tayyorlab rahbariyatga taqdim etish hamda ta'lim sifatini tashqi baholash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshirish orqali ichki sifatni mustahkamlashda faol ishtirok etadi.

Tashqi manfaatdor tomonlar ichki sifatni ta'minlashda quyidagi **vazifalarni** amalga oshiradi:

	Ish beruvchilar ta'lim jarayonining amaliy mazmunini shakllantirishda ishtirok etib, bitiruvchilarga qo'yiladigan kasbiy kompetensiyalarni aniqlashda yordam berish, o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish, amaliyot bazalari va real ish muhitini ta'minlash, shuningdek, bitiruvchilar sifati bo'yicha fikr-mulohaza bildirish orqali ta'lim sifatining amaliy jihatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.
	Ota-onalar ta'lim sifatini kuzatish, unga doir fikr bildirish, talabalarning o'qishga bo'lgan munosabatini shakllantirishda ishtirok etish hamda ota-onalar kengashi orqali ta'lim tashkiloti faoliyatiga ko'maklashish orqali ichki sifat tizimining barqarorligini ta'minlashda ishtirok etadi.
	Vazirlik va idoralar ta'lim standartlarini ishlab chiqish va nazorat qilish, akkreditatsiya va attestatsiya jarayonlarini tashkil etish, ichki sifat tizimini baholash hamda takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish, shuningdek, moliyaviy, metodik va normativ-huquqiy jihatdan ta'lim tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash orqali sifat tizimini umumiy darajada boshqaradi.
	Oliy ta'lim tashkilotlari pedagogik salohiyatni mustahkamlash, ta'lim jarayonining monitoringi va sifat baholashini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, o'quv-uslubiy ta'minotni hamda ilmiy sohani boyitish orqali sifatli va innovatsion ta'lim muhitini shakllantirishda hamkorlik qiladi.
	Bitiruvchilar ishga joylashuv natijalari asosida ta'lim sifati haqida tahliliy fikrlar berish, seminar va treninglarda faol ishtirok etish, ta'lim sifati bo'yicha taklif va tavsiyalar berish hamda ijtimoiy loyihalarda qatnashish orqali sifatli ta'limning uzluksiz takomillashuviga hissa qo'shadilar.
	Fuqarolik jamiyati tashkilotlari mustaqil nazorat va monitoringda ishtirok etish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash hamda ta'lim sifati bo'yicha tavsiyalar berish va ijtimoiy loyihalarda faol qatnashish orqali ta'lim tizimida fuqarolik nazoratini kuchaytiradi.
	Xalqaro tashkilotlar texnik yordam va grantlar orqali sifat infratuzilmasini rivojlantirish, ichki baholash usullarini xalqaro tajribaga tayangan holda takomillashtirish, shuningdek, mustaqil tashqi baholash orqali ta'lim sifatining monitoringida qatnashish orqali tizimga xalqaro tajribani joriy qiladi.

Ichki sifatni ta'minlashga barcha ishtirokchilarning faol hamkorligi asosida erishiladi.

Ta'lim tashkiloti rahbariyati ichki sifatni ta'minlashga mas'ul hisoblanadi.

ICHKI SIFATNI TA'MINLASH BO'LINMASINI TASHKIL ETISH TARTIBI HAMDA UNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 5-maydagi PF-76-son farmoniga muvofiq idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar har bir ta'lim tashkiloti tarkibida umumiy shtatlar doirasida ichki ta'lim sifati auditini amalga oshirishga mas'ul ichki ta'lim sifati nazorati bo'limlari (keyingi o'rinlarda – bo'lim) tashkil etilishi belgilangan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarorining 4-bandida oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim sifatini ta'minlash bo'limlari kamida 3 nafar (oylik ish haqi dekan lavozimiga tenglashtirilgan bo'lim boshlig'i va dekan o'rinbosari lavozimiga tenglashtirilgan 2 nafar bosh mutaxassis) xodimdan iborat bo'lishi belgilangan.

Bo'lim ta'lim tashkiloti rahbarining buyrug'i asosida tashkil etiladi.

Bo'lim o'z faoliyatini tashkilot nizomi, ichki me'yoriy hujjatlar, amaldagi qonunchilik hamda sifatni ta'minlash sohasidagi milliy va xalqaro standartlar asosida olib boradi.

Bo'lim faoliyatini mustaqil holda yuritadi hamda bevosita tashkilot rahbari va vakolatli organlar oldida hisobot beradi.

Bo'limning asosiy vazifalari tashkilotning ichki nizomi asosida belgilanadi.

Bo'lim tomonidan **1-ilovadagi** anketa asosida professor-o'qituvchilardan, **2-ilovadagi** anketa asosida talabalardan ichki sifatni doimiy baholab borishga mo'ljallangan so'rovnomalarni o'tkazib boradi. Anketalar asosida to'plangan shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi bo'lim tomonidan ta'minlanadi.

Quyidagilar bo'limning asosiy **vazifalari** hisoblanadi:

ta'lim tashkilotida kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish va monitoringini olib borish;

talabalar bilimlarining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini hamda talabalar fanlarni o'zlashtirish darajasini o'rganib borish va tahlil qilish;

ta'lim sifatini ta'minlay oladigan pedagoglar tarkibini shakllantirish, jumladan salohiyatli professor-o'qituvchilarni tanlash, ishga qabul qilish, ularning

kasbiy mahorati va malakasini oshirish imkonini beradigan (obyektiv) shaffof, tashkiliy mexanizmlarni yaratish;

professor-o'qituvchilar dars berish sifatini muntazam ravishda tahlil qilish;

ta'lim tashkilotida ichki baholashdan o'tkazishni tashkil etish va ichki baholash natijalari bo'yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rish;

o'quv jarayonini normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar asosida to'g'ri tashkil etish;

malaka talabalari, o'quv reja va dasturlarning kasbiy standartlar hamda mehnat bozori talablariga mos bo'lgan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga muvofiqligini tahlil qilish;

bitiruvchi talabalarining kadrlar bozoridagi o'rni, ularga ehtiyoj, sohaning yashovchanlik darajasi yuzasidan kengaytirilgan xulosalarni shakllantirish;

o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalari asosida tashkil etilganligi, dars jarayonlari sifatining nazorati talab darajasida yo'lga qo'yilganligini o'rganib borish;

dars o'tish uchun ishlab chiqarishdan (amaliyotdan) malakali mutaxassislarni jalb etilganligini o'rganib borish, talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda shaffoflik va xolislikni ta'minlanganligi bo'yicha ko'rilgan choralar samaradorligini aniqlash;

professor-o'qituvchilarning malaka oshirganligi, dasturlarga fandagi yangiliklarning kiritilganligini o'rganish;

professor-o'qituvchilarga o'quv yuklamasini adolatli taqsimlanganligini tahlil qilish;

axborot-resurs markazida talaba, ilmiy izlanuvchi va professor-o'qituvchilar uchun yaratilgan sharoitlar holati, fanlar bo'yicha darsliklarning mavjudligini o'rganib borish va rahbariyatga takliflar kiritish;

mustaqil ta'limni talab darajasida tashkil etilishini o'rganish va tahlil qilish (yo'riqnoma yoki uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqilishi, mustaqil ta'limni tashkil etish uchun talablarni qo'yilishi va talabalar yuklamasini shakllantirilishini ta'minlash);

Quyidagilar bo'limning asosiy **huquqlari** hisoblanadi:

tashkilotning barcha strukturaviy bo'linmalari faoliyatini sifat jihatidan baholash va monitoring qilish;

ichki audit va o'zaro baholash tadbirlarini o'tkazish;

o'quv, ilmiy, boshqaruv va boshqa jarayonlarda aniqlangan kamchiliklar yuzasidan rahbariyatga takliflar berish;

sifatni ta'minlash sohasida metodik ko'rsatmalar, me'yoriy hujjatlar va takliflar ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etishni nazorat qilish;

ta'lim tashkiloti xodimlari, talabalar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan so'rovnomalar, intervyular o'tkazish orqali fikr va takliflarni yig'ish;

tashqi baholash (akkreditatsiya, attestatsiya) jarayonlariga tayyorgarlik ko‘rishda ishtirok etish va hamkorlik qilish;

qonunchilik hujjatlariga zid bo‘lmagan boshqa huquqlardan foydalanish.

Quyidagilar bo‘limning asosiy **majburiyatlari** hisoblanadi:

tashkilotda sifatni doimiy takomillashtirish, sifat madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha strategik maqsadlarga erishishni ta‘minlash;

ichki sifatni baholash jarayonlarini rejalashtirish, amalga oshirish va natijalarini tahlil qilish;

sifatni ta‘minlash bo‘yicha milliy va xalqaro standartlarga muvofiqlikni nazorat qilish;

sifatni oshirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;

har yili (yoki yarim yillik) sifatni ta‘minlash holati bo‘yicha hisobot tayyorlash va rahbariyatga taqdim etish;

tashkilot xodimlari va boshqa manfaatdor tomonlar uchun sifatni ta‘minlash bo‘yicha o‘quv-trening tadbirlarini tashkil etish;

faoliyati davomida olingan ma‘lumotlarning maxfiyligini saqlash va noto‘g‘ri foydalanilishining oldini olish.

O‘ZINI O‘ZI BAHOLASHNING AHAMIYATI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMLARI

O‘zini o‘zi baholash ta‘lim tashkilotining o‘z faoliyatini mustaqil ravishda tahlil qilish, ta‘lim sifatiga ta‘sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularni takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish jarayonidir. Mazkur jarayon ichki sifatni ta‘minlash tizimining ajralmas qismi hisoblanadi va oliy ta‘lim tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zini o‘zi baholash orqali oliy ta‘lim tashkiloti quyidagilarga erishadi:

oliy ta‘lim tashkilotining kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi;

o‘quv jarayonini rejalashtirish, taklif etish va monitoring qilishda qaror qabul qilishga asos yaratadi;

tashqi baholash (davlat akkreditatsiya)ga tayyorgarlikni kuchaytiradi;

ta‘lim sifatini oshirish bo‘yicha aniq maqsad va ustuvor yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi.

O‘zini o‘zi baholashni 3-ilovadagi namunaviy so‘rovnoma asosida doimiy ravishda amalga oshirish mumkin.

YAKUNIY QOIDALAR

Mazkur qo‘llanmadan ta‘lim tashkilotlari ichki sifatni ta‘minlash jarayonlarini tashkil etishda tavsifiyaviy hujjat sifatida foydalanishi mumkin.

NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QONUNLARI	
O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son qarori	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI FARMON VA QARORLARI	
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini ta’minlash va ta’lim xizmatlari ko‘rsatish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoni	
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 24-maydagi PF-81-son Farmoni	
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni	
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentyabrdagi PQ-345-son qarori	

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tashkil etish to‘g‘risida” 2022-yil 15-iyundagi PQ-279-son qarori	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORLARI	
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi ta’lim tashkilotlarini kompleks va maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tizimini joriy etish to‘g‘risida” 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori;	
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2025-yil 10-martdagi 149-son qarori	
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagi 415-son qarori	
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 03-oktyabrdagi 559-son qarori	
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son qarori	

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) va kechki (smenali) ta’limni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” 2017-yil 21-noyabrdagi 930-son qarori	
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish, talabalar o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida” 2017-yil 20-iyundagi 393-son qarori;	

PEDAGOG XODIMLAR UCHUN ANKETA

Iltilmos, barcha savollarga xolisona javob bering. Javoblaringiz maxfiy saqlanadi va faqat ta'lim sifatini oshirish uchun foydalaniladi.

1.Mutaxassisligingiz: _____

2.Ish staji:

- ☐ 1-3 yil
- ☐ 4-10 yil
- ☐ 11-20 yil
- ☐ 20 yildan ortiq

3.Ta'lim mazmuni (darsliklar, o'quv rejalar) zamonaviy talablar va mehnat bozoriga mos keladimi?

- ☐ To'liq mos
- ☐ Qisman mos
- ☐ Mos emas

4.Dars jarayonida zamonaviy texnologiyalar (multimedia, onlayn platformalar)dan foydalanasizmi?

- ☐ Ha, doimo
- ☐ Ba'zida
- ☐ Yo'q

5.Metodik materiallar (yo'riqnomalar, testlar, dars ishlanmalari) bilan ta'minot darajasi qanday:

- ☐ Yaxshi
- ☐ Qoniqarli
- ☐ Qoniqarsiz

6.Ish yuklamangiz (soat, fanlar, yuk) adolatli taqsimlangan deb hisoblaymizmi?

- ☐ Ha
- ☐ Qisman
- ☐ Yo'q

7.Ichki malaka oshirish kurslari (trening/seminar)da qatnashish imkoniyatingizni baholang:

- ☐ Muntazam ishtirok etaman

- ☐ Kamdan-kam
- ☐ Umuman ishtirok etmayman

8. Ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanish uchun sharoitlar sizni qoniqtiradimi?

- ☐ To'liq qoniqtiradi
- ☐ Qisman qoniqtiradi
- ☐ Umuman qoniqtirmaydi

9. Sizning tashabbus va takliflaringiz rahbariyat tomonidan inobatga olinadimi?

- ☐ Ha
- ☐ Ba'zida
- ☐ Yo'q

10. Ish joyingizdagi ijtimoiy-psixologik muhitni baholang:

- ☐ Do'stona va professional
- ☐ Rasmiy, lekin to'g'ri
- ☐ Sovuq va rasmiy

11. Ichki sifatni ta'minlash bo'limi faoliyati bilan tanishmisiz?

- ☐ Ha, faol ishtirok etaman
- ☐ Tanishman, lekin ishtirok etmayman
- ☐ Umuman bilmayman

12. Ichki sifatni oshirishga doir taklif va fikrlaringiz:

TALABALAR UCHUN ANKETA

Iltilmos, barcha savollarga halol va xolisona javob bering. Javoblaringiz maxfiy saqlanadi va faqat ta'lim sifatini oshirish uchun foydalaniladi.

1. Ta'lim yo'nalishingiz: _____
2. Bosqichingiz:
 - ☐ 1-kurs
 - ☐ 2-kurs
 - ☐ 3-kurs
 - ☐ 4-kurs
 - ☐ 5-kurs
3. Darslar tushunarli va qiziqarli o'tiladimi?
 - ☐ Ha, doimo
 - ☐ Ba'zida
 - ☐ Yo'q
4. Baholash jarayoni adolatli va shaffof o'tkaziladimi?
 - ☐ Ha
 - ☐ Qisman
 - ☐ Yo'q
5. Sinfxonalar, laboratoriyalar va jihozlar sizni qoniqtiradimi?
 - ☐ To'liq qoniqtiradi
 - ☐ Qisman
 - ☐ Umuman qoniqtirmaydi
6. Kutubxona va internet resurslariga kirish imkoniyati qanday:
 - ☐ Erkin va yetarli
 - ☐ Cheklangan
 - ☐ Mavjud emas
7. Professor-o'qituvchilarning darsda zamonaviy texnologiyalar va interaktiv usullardan foydalanishi sizni qoniqtiradimi?
 - ☐ Ha
 - ☐ Qisman
 - ☐ Yo'q
8. Amaliyot (praktika) jarayonlari sizning kasbiy tayyorgarligingiz uchun foydalimi?
 - ☐ Ha
 - ☐ Qisman
 - ☐ Yo'q
9. Talabalar fikrlari va takliflariga rahbariyat e'tibor qaratadimi?
 - ☐ Ha
 - ☐ Ba'zida

☐ Yo‘q

10. Universitetdagi maslahat va qo‘llab-quvvatlash xizmatlari (masalan, dekanat, psixolog, karyera markazi) qoniqarli darajada ishlaydimi?

☐ Ha

☐ Qisman

☐ Yo‘q

11. Universitetda talabalar uchun tashqi faoliyat (to‘garaklar, sport, madaniy tadbirlar) yetarli darajada tashkil etilganmi?

☐ Ha

☐ Qisman

☐ Yo‘q

12. Sizningcha ta’lim sifatini oshirish uchun nimalar qilish kerak?
(Ochiq maydon)

**OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINI KOMPLEKS DAVLAT
AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH UCHUN ICHKI (O'Z-O'ZINI)
BAHOLASH BO'YICHA NAMUNA**

1. Tashkiliy-boshqaruv faoliyati

1.1. Oliy ta'lim tashkilotlarida aniq belgilangan qarash (marra), missiya va strategik maqsadlar mavjudmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

1.2. Oliy ta'lim tashkilotlarni tashkiliy tuzilmasi tasdiqlanganmi va vazifalar aniq belgilanganmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

1.3. Ta'lim tashkilotida Boshqaruv (Kuzatuv, Vasiylik) kengashi tashkil etilganmi va uning faoliyati samaradorligi darajasi qanday?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

1.4. Ta'lim sifatini ta'minlash uchun moliyaviy resurslar maqsadli yo'naltirilganmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

1.5. Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasi ishlab chiqilganmi va uning jamoatchilik uchun ochiqligi ta'minlanganmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

1.6. Tashkilot hududiy va respublika miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishga hissa qo'shadimi?"

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

1.7. Ta'lim jarayonlarini boshqarish hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha axborot tizimi mavjudmi va ushbu tizim ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilinganmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

1.8. Ta'lim tashkilotida xalqaro hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilganmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

2. Ta'lim sifatini ta'minlash

2.1. Ichki sifatni ta'minlashda manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilganmi?"

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

2.2. Ichki sifat tizimi muntazam tahlil qilinib, natijalari asosida takomillashtiriladimi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

2.3. Talabalar bilimi belgilangan tartibda va o'quv natijalariga muvofiq baholanadimi?"

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

2.4. Ta'lim tashkilotida akademik halollik qoidalar va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizim mavjudmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

2.5. Bitiruvchilar bandligi monitoringi yuritilib ish beruvchilar fikri tahlil qilinadimi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

3. Talabalar faoliyati

3.1. Qabul parametrlari tashkilot resurs va imkoniyatlariga mos ravishda belgilanganmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

3.2. Talabalarni o'qishga qabul qilish belgilangan tartib-qoidalar asosida to'g'ri, shaffof va adolatli tashkil qilinganmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

3.3. Talabalar o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishni qayta tiklash jarayonlari belgilangan tartibda amalga oshiriladimi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

3.4. Respublika va xorijiy mamlakatlardagi ta'lim tashkilotlari bilan akademik mobillik yo'lga qo'yilganmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

3.5. Ta'lim xizmatlari eksporti samarali yo'lga qo'yilganmi?

O‘zini o‘zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

4. O‘quv jarayonini tashkil etish

4.1. O‘quv jarayonini rejalashtirish hujjatlari ishlab chiqilib, belgilangan tartibda tasdiqlanganmi?”

O‘zini o‘zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

4.2. Professor-o‘qituvchilarning o‘quv-me’yoriy hujjatlari belgilangan talablarga muvofiq tuzilganmi? O‘zini o‘zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

4.3. Professor-o‘qituvchilarning o‘quv yuklamalari belgilangan normalarga muvofiq ajratilganmi?

O‘zini o‘zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

4.4. Ta’lim dasturlarining mazmuni iqtisodiyot, sanoat va soha ehtiyojlaridan kelib chiqib yangilanadimi?

O‘zini o‘zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

4.5. Ta’lim tashkilotida dars tahlillari olib borilib, natijalar muhokama qilinadimi?

O‘zini o‘zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

5. Inson resurslari

5.1. Pedagog kadrlar ilmiy salohiyati belgilangan talablarga javob beradimi?

O‘zini o‘zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

5.2. Pedagog kadrlarning mutaxassisligi (ixtisosligi) dars o‘tadigan fan(lar)ga mos keladimi?

O‘zini o‘zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

5.3. Ta’lim tashkilotiga pedagog kadrlarni belgilangan tartibda ishga qabul qilish va ishdan bo‘shatish to‘g‘ri tashkil qilinganmi hamda kadrlar qo‘nimsizligining oldini olish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilganmi?

O‘zini o‘zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

5.4. Pedagog kadrlarning belgilangan talablarga muvofiq kasbiy rivojlanishi va malakasini oshirish ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilganmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

5.5. Pedagog kadrlar uchun xorijda va/yoki ishlab chiqarish korxonalarida malaka oshirish yoki stajirovkalar tashkil etilganmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

5.6. Rahbar va pedagog kadrlar faoliyati samaradorligini baholash tizimi (KPI) yo'lga qo'yilganmi hamda u asosida xodimlar moddiy va ma'naviy rag'batlantiriladimi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

6. Ilmiy-tadqiqot ishlari

6.1. Ta'lim tashkilotida professor-o'qituvchilar uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini va xalqaro mobilligini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar mavjudmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

6.2. Ilmiy-noshirlik faoliyatida ko'chirmachilikni aniqlash bo'yicha axborot tizimi joriy etilganmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

6.3. Tashkilotda Xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-metodik anjumanlar o'tkaziladimi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

6.4. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda korxona va tashkilotlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilganmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

6.5. Mahalliy hamda xalqaro axborot va ma'lumotlar bazasidan (Scopus, Web of Science yoki boshqa umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalari jurnallari) foydalanish imkoniyatlari yaratilganmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

6.6. Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalari muntazam monitoring qilib boriladimi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

6.7. Talabalarga startap loyihalari va ratsionalizatorlik g'oyalari bilan respublika va xalqaro ilmiy dasturlarda ishtirok etish uchun imkoniyat yaratilganmi va bu samarali natija bermoqdami?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

6.8. Ta'lim tashkiloti talaba va professor-o'qituvchilarining ilmiy va ilmiy-texnik faoliyati natijalarini tijoratlashtiriladimi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

7. Talabalarni qo'llab-quvvatlash

7.1. Talabalar fikrlari muntazam o'rganilib, natijalari asosida takomillashtirish choralari ko'riladimi?"

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

7.2. Talabalar uchun maslahat va karyera xizmatlari yo'lga qo'yilganmi?"

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

7.3. Ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli talabalarga shart-sharoitlar yaratish hamda ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining joriy etilganmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

7.4. Yoshlar bilan ishlash samaradorligi, huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladimi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

7.5. Talabalar huquqlarini himoya qilish va shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibi mavjudmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

8. Moddiy texnik ta'minot

8.1. Ta'lim tashkiloti talabalar kontingentiga mos ravishda zarur bino va inshootlar, zamonaviy moddiy-texnik baza, xomashyo materiallari va dasturiy ta'minot bilan ta'minlanganmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

8.2. Ta'lim jarayonlari uchun zarur bo'lgan amaliyot bazalari va laboratoriyalari mavjudmi yoki sanoat hamkorlari va boshqa ta'lim tashkilotlari bazalaridan foydalanish yo'lga qo'yilganmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

8.3. Axborot-resurs markazi (kutubxona) talabalar uchun yetarli adabiyot va texnik vositalar bilan ta'minlanganmi, o'quv zali va elektron kutubxona mavjudmi?"

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

8.4. Binolar, jihozlar va o'quv materiallari hamda AKTdan foydalanish imkoniyati inklyuziv ta'lim uchun moslashtirilganmi?"

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

8.5. O'quv va laboratoriya xonalarida jihozlarning tegishli xavfsizlik qoidalari hamda o'qitish ehtiyojlarini hisobga olgan holda joylashtirilganmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

8.6. O'quv xonalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlangan va raqamli ta'lim muhiti yaratilganmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____

8.7. Ta'lim tashkilotida talabalar kontingentiga mos bufet/oshxona, o'rindiqlar va sport maydonlari mavjudmi?

O'zini o'zi baholash (1–5 ball): _____

Dalillar/Izohlar: _____